



“TASDIQLAYMAN”

“NKMK” AJ

Kadrlar boshqarmasi boshlig‘i

F.M. Xoshimov

“NKMK” AJda Korrupsiya holatlari haqida xabar berish mexanizmi, xabar bergan xodimlarni rag‘batlantirish, ularning ta‘qibga olinmasligi kafolatining mavjudligi yuzasidan

MA’LUMOT

2025-yil 30-sentabr holatiga

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining (keying o‘rinlarda- Jamiyat) 2023-yil 22-fevraldagi 93-sonli buyrug‘i birinchi ilovasi bilan “Jamiyat va uning tarkibiy bo‘linmalarida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan xodimlarni rag‘batlantirish Tartibi” qabul qilingan.

Mazkur Tartib Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini aniqlash va tegishli ta‘sir choralari ko‘rishga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish maqsadida ishlab chiqilgan.

Shuningdek Tartib O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonunchiligi va Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashishga oid va amaldagi ichki idoraviy hujjatlari talablari buzilishi, manfaatlar to‘qnashuvi sodir etilganligi, odob-axloq qoidalarini buzilishi holatlari bo‘yicha xabar bergan jamiyat xodimlarini rag‘batlantirish tartibini belgilaydi.

Mazkur tartib qoidalariga asosan 2025-yil 3-chorak davomida Jamiyat xodimlari rag‘batlantirilmagan.

Bundan tashqari, Jamiyat kuzatuv kengashining 2024-yil 7-iyundagi 4-son majlis bayonining 24-ilovasiga asosan “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati va uning tarkibiy bo‘linmalariga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar, ochiqlik va monopoliya to‘g‘risidagi qonun buzilish holatlari yuzasidan kelib tushgan xabarlarni qabul qilish hamda ko‘rib chiqish Reglamenti tasdiqlangan.

Ma’lumot uchun: Jamiyatga 2025-yil 3-chorak davomida korrupsiyaga oid jami 42 ta murojaat kelib tushgan. Shundan, 23 tasi yozma shaklda, 6 tasi O‘zbekiston Prezidenti virtual qabulxonasi orqali, 13 tasi Jamiyat ishonch telefoni orqali kelib tushgan.

Mazkur murojaatlar asosida 4 ta xizmat tekshiruvi olib borilgan va 38 ta o'rganish o'tkazilib (1 tasi bo'yicha o'rganish tugallanmagan), tegishli tartibda murojaat mualliflariga javob xatlari yuborilgan.

2 nafar fuqaro tomonidan yuborilgan 2 ta murojaatlarni ko'rib chiqish davomida aniqlangan holatlar (yoki murojaatning bir qismi) vakolat doirasida ko'rib chiqish uchun tegishliligi bo'yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborilgan.

Komplayens xizmati boshlig'i v.b



R.F. Avezov